TOSHKENT SHAHAR MIRZO ULUG‘BEK TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 10 - noyabr 517-14-200-Q/22 Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2022-yil 1-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosi to‘g’risida”gi 1126-14-0-Q/22-sonli qarori ijrosi yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022–2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Toshkent shahri tumanlarini obod qilish, mahallalarda infratuzilma bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, xususan, joylarda ichki yo‘llar, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta’minotini, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma ob’ektlarini yaxshilash, shu orqali Toshkent shahar aholisi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish hamda Toshkent shahar hokimining 2022-yil 1 noyabrdagi 1126-14-0-Q/22-sonli qarori ijrosi yuzasidan,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining 2022-yil 1-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 1126-14-0-Q/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining hamda Toshkent shahar hokimining mazkur qarorlariga muvofiq:

2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar

dasturlari (keyingi o‘rinlarda – Dasturlar) ishlab chiqilganligi;

2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarning yig‘ma parametrlari;

2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish yuzasidan Respublika Ishchi guruhi tarkibi;

2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturlarini amalga oshirish yuzasidan hududiy ishchi guruhlar (keyingi o‘rinlarda – Hududiy ishchi guruhlar) rahbarlari ro‘yxati tasdiqlanganligi;

2022 yil 15 noyabrga qadar Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar (ob‘ektlar)ning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o‘tkazish choralari ko‘rilishi;

Dasturlarga kiritilgan ob‘ektlarni foydalanishga topshirish bo‘yicha davlat qabul komissiyalari tarkibiga bajarilgan qurilish ta’mirlash ishlarining hajmi va sifati bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi uchun mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari kiritilishi ta’minlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

3. Quydagilar:

dasturlar doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta’mirlash ishlari bo‘yicha buyurtmachilar etib:

ichki avtomobil yo‘llari bo‘yicha – Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tizimidagi buyurtmachi tashkilotlar;

ichimlik suvi ta’minoti va oqava suv tizimi ob’ektlari bo‘yicha “Suv ta’minoti va oqova suv ta’minoti qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” unitar korxonasi;

elektr energiyasi va gaz ta’minoti ob‘ektlari hamda aloqa tarmoqlari bo‘yicha – tegishincha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgaz ta’minot” AJ, “O‘zbektelekom” AK hududiy filiallari;

ijtimoiy soha ob’ektlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari idoralari, obodonlashtirish va tungi yoritish uskunalarini o‘rnatish ishlari va boshqa ob’ektlar bo‘yicha Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari hamda ushbu ob’ektlarni saqlash bilan bog‘liq ta‘mirlash ishlari bo‘yicha – tegishli tarmoq korxonalari belgilanganligi;

tuman hokimlari va tuman sektor rahbarlari har oyda Xalq deputatlari tuman Kengashlariga Dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida hisobot berib borilishi ta’minlanishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Abdulxakov, M.Kuziyev):

Hududiy ishchi guruhlar bilan birgalikda bir hafta muddatda Dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalarning ro‘yxatlarini tegishincha Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashlarida muhokama qilib, tasdiqlanishi ta’minlanganligi inobatga olinsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Saidaliyev), tuman Moliya bo‘limi (SH.Ismailov):

qurilish-ta’mirlash ishlari Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg‘armalari orqali moliyalashtirilishi, bunda, mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga byudjetlararo transfertlar sifatida ajratilishi;

2022-yilda ajratilib, yil yakuniga qadar o‘zlashtirilmasdan qolgan mablag‘lar Davlat byudjetiga qaytarilmasligi va ushbu mablag‘lar 2023 yilda Dasturlarda nazarda tutilgan ob’ektlarning qurilish-ta’mirlash ishlarini yakunlash uchun maqsadli yo‘naltirilishi;

ob’ektlar uchun ajratilgan mablag‘lar loyiha-smeta hujjatlariga asosan aniqlangan ishlar hajmini moliyalashtirishga yetishmagan taqdirda, qo‘shimcha xarajatlar tegishincha Toshkent shahri mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishi;

moliyalashtirish uchun qurilish-ta’mirlash ishlarining manzilli ro‘yxatlari Toshkent shahri hokimliklari tomonidan tasdiqlanishi belgilanganligi;

Dasturlar doirasida qurilish-ta’mirlash ishlarini boshlash va amalga oshirish maqsadida Moliya vazirligi tomonidan:

2022-yil 15-noyabrga qadar Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” jamg‘armalariga jami 1,7 trillion so‘m miqdorida mablag‘larni o‘tkazib berilishi;

kelgusida, ehtiyojga qarab, ushbu qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha 1 trillion so‘m mablag‘lar ajratilishi nazarda tutilganligi inobatga olinsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Abdulxakov, M.Kuziyev):

“Dasturlar doirasida ajratiladigan mablag’lardan maqsadli va samarali foydalanishni tizimli nazorat qilish hamda kreditor qarzdorliklar yuzaga kelishiga yo‘l

qo‘ymaslik yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklanganligi inobatga olinsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Kasimov, A.Boymatov),

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash markazi hamda bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda mahallalar kesimida alohida reja-jadvallarni ishlab chiqib tasdiqlansin;

har hafta joylarga chiqqan holda mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar o‘z vaqtida va samarali tashkil qilinishi nazoratga olinsin, shuningdek, dolzarb muammolar hal etilayotganligi yuzasidan aholi o‘rtasida batafsil tushuntirish va targ’ibot ishlari tashkil etilsin;

mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holatini, bu borada aholining fikr mulohazalarini tizimli o‘rganib, mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha Respublika Ishchi guruhiga takliflar kiritib borilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Abdulxakov va M.Kuziyev zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi **SH.T.Irgashev**